Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abduxalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish.....	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish.....	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements.....	1611
Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.....	1615
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan samaradorligi.....	1621
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
Qurilish korxonalari faoliyatida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish	1625
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	



QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDA YASHIL IQTISODIY INFRATUZILMANI RAQAMLASHTIRISH



Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini raqamlashtirish yo'nalishlari chuqur tahlil qilinadi. Avvalo, IT-texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va monitoring qilish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan O'zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalarda qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy raqamli yechimlar taklif etiladi. Ilmiy yondashuv sifatida NPV, ROI va EII indikatorlari orqali iqtisodiy samaradorlik baholangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, sifat nazoratini kuchaytirish va energiya tejash mexanizmlari ishlab chiqilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi – raqamli infratuzilmani yashil iqtisodiyot asosida milliy darajada moslashtirishga qaratilgan tavsiyalardir.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, qurilish materiallari, avtomatlashtirilgan boshqaruv, sifat nazorati, energiya samaradorligi, monitoring, yashil infratuzilma.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the digitalization of building materials manufacturing enterprises. The study first addresses automation and monitoring of production processes through IT platforms. It also explores opportunities for resource efficiency, waste reduction, and cost optimization. The author proposes practical digital solutions tailored to the Uzbek context. As a scientific approach, economic effectiveness is evaluated using indicators such as NPV, ROI, and EII. Based on the findings, mechanisms for quality control and energy saving are developed. The scientific novelty of the article lies in the development of recommendations for adapting digital infrastructure to the principles of the green economy at the national level.

Key words: raqamlashtirish, qurilish materiallari, avtomatlashtirilgan boshqaruv, sifat nazorati, energiya samaradorligi, monitoring, yashil infratuzilma.

Аннотация: В статье проводится глубокий анализ цифровизации деятельности предприятий по производству строительных материалов. В первую очередь рассматриваются подходы к автоматизации производственных процессов с использованием IT-платформ и систем мониторинга. Также исследуются возможности оптимизации использования ресурсов, сокращения отходов и снижения затрат. Автор предлагает практические цифровые решения, адаптированные к условиям Узбекистана. В качестве научного подхода проводится оценка экономической эффективности с использованием показателей NPV, ROI и EII. На основе результатов исследования разработаны механизмы повышения качества и энергосбережения. Научная новизна статьи заключается в разработке рекомендаций по адаптации цифровой инфраструктуры в контексте зелёной экономики на национальном уровне.

Ключевые слова: цифровизация, строительные материалы, автоматизированное управление, контроль качества, энергоэффективность, мониторинг, зелёная инфраструктура.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – barqaror rivojlanishga asoslangan yashil iqtisodiy infratuzilmani shakllantirishdir. Ayni paytda global miqyosda iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik xavflarning ortib borishi fonida qurilish sohasi ham jiddiy qayta ko'rib chiqilmoqda. Chunki ushbu soha dunyodagi karbon chiqindilarining qariyb 39 foizini tashkil etadi va tabiiy resurslardan foydalangan eng intensiv sektorlardan biri hisoblanadi. Shunday sharoitda yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishga xizmat qiluvchi tamoyilga aylandi. Buning ajralmas tarkibiy qismi esa – raqamli texnologiyalar yordamida infratuzilmani avtomatlashtirish va nazorat qilish mexanizmlarini yaratishdir. Maqola shu nuqtai nazardan, aynan qurilish korxonalari faoliyatida yashil infratuzilmani raqamlashtirish yo'nalishlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ushbu masalaning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy kontekstdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Bugungi kunga kelib, dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan Germaniya, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya va Shvetsiyada yashil raqamli infratuzilmalar qurilishi bo'yicha keng ko'lami milliy dasturlar qabul qilgan. Masalan, Germaniyada "BIM Green Building" platformalari yordamida binolarning energiya samaradorligi va uglerod izlari real vaqt rejimida monitoring qilinmoqda. Xitoyda esa "Smart Green Construction" dasturi asosida ekologik xavfsizlik indikatorlari orqali butun qurilish jarayoni avtomatlashtirilgan tizimga o'tkazilgan. Jahon banki, OECD va BMT doirasidagi tahlillar ham ushbu jarayonlarning qamrovi kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Shuningdek, OECD Greening Infrastructure hisobotiga ko'ra, raqamlashtirish orqali infratuzilmalarni yashillashtirish 2030 yilga borib, global YAIMning 3 foiziga teng iqtisodiy samara keltirishi prognoz qilingan. Ushbu jahon tajribasi O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, milliy darajada bu boradagi ilmiy-nazariy va texnologik asoslarni mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasida ham aynan yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada qurilish materiallari ishlab chiqarishni ekologik toza texnologiyalar asosida olib borish, "yashil sertifikat" tizimini joriy etish, hamda "raqamli loyihalash va monitoring" mexanizmlarini yaratish kabi aniq maqsad va vazifalar belgilab qo'yilgan. Shuningdek, 2030-yilga qadar qurilish sohasida raqamli texnologiyalarning qamrovini 70 foizga yetkazish, energiya samaradorligini ikki baravarga oshirish vazifasi ham strategik yo'nalish sifatida ilgari surilgan. Mazkur maqola aynan shu milliy strategik hujjatlar ruhida, yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish jarayonining nazariy asoslarini tahlil qilish, xalqaro va mahalliy yondashuvlarni taqqoslash, hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Natijada, maqolada taklif etilgan yondashuvlar O'zbekiston qurilish sanoatining ekologik va texnologik transformatsiyasiga real hissa qo'shadi, degan ishonch mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi va uni raqamlashtirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan, iqtisodchi olim Xerman E. Daly o'zining asarlarida iqtisodiy faoliyat atrof-muhit resurslariga to'liq bog'liq ekanligini asoslab, barqaror o'sish emas, balki barqaror holat iqtisodiyotini ilgari suradi. Uning fikricha, resurslar va chiqindilar cheklangan bo'lgan muhitda raqamlashtirish vositalari vositasida monitoring qilish — bu barqarorlikka erishishning asosi sanaladi [1]. Bizning tadqiqotda esa ushbu nazariya asos sifatida olinib, lekin alohida ravishda qurilish sohasida IoT va AI asosidagi real vaqtda monitoring tizimlariga urg'u berilgan.

Jahon banki, OECD va UNEP tomonidan tayyorlangan hisobotlar ham yashil infratuzilmaning iqtisodiy samaradorligi va barqarorlikdagi o'rnini keng yoritgan. Jumladan, OECDning "Greening Infrastructure" deb nomlangan hisobotida raqamli texnologiyalar orqali infratuzilmani yashillashtirish global YAIMni 2030-yilgacha 3 foizga oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan [2]. Biroq, bu hujjat umumiy infratuzilmalar haqida bo'lib, bizning ishda esa aniq qurilish sanoatidagi korxonalar, xususan beton, g'isht, sement ishlab chiqaruvchi tizimlar misolida batafsil yoritilgan. Bu jihatdan maqolamiz xalqaro tahlilni milliy kontekstga moslashtirganligi bilan ajralib turadi.

Porter va Van der Linde (1995) o'z ishida ekologik nazorat va innovatsiyalar bir-birini to'ldiruvchi jarayon ekanligini, "ifloslantiruvchi – to'lovchi" tamoyilining raqamli texnologiyalar orqali oson qo'llanishi mumkinligini ta'kidlagan [3]. Bu nazariy yondashuv maqolamizda asos qilib olingan, biroq biz yondashuvni faqat nazariy emas, balki ERP, BIM va WMS tizimlari integratsiyasi orqali operatsion darajadagi ekologik monitoringni misollar bilan asoslab beramiz. Bu esa amaliy natijalarga asoslangan farqdir.

Olmoniyalik iqtisodchi Klaus Schwab tomonidan ilgari surilgan "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasi doirasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning asosiy rol o'ynashi qayd etilgan. Schwab bu borada sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli hisoblashlar va IoT'ni "yashil transformatsiya"ning asosi deb biladi [4]. Biroq ushbu nazariya ko'proq sanoat ishlab chiqarishiga qaratilgan bo'lib, bizning maqolamiz



aynan qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi yashil infratuzilmaning real misollari orqali nazariyani amaliyotga aylantiradi. Shuningdek, Schwab texnologiyalarni texnik-ijtimoiy kontekstda ko'radi, biz esa ularni iqtisodiy ko'rsatkichlar (NPV, ROI) bilan bog'lab baholaymiz.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Rustamov A.M. va Xasanov S.M. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilmiy maqolalarida, asosan, ekologik tozalikka qaratilgan davlat siyosati va investitsiyaviy muhitga urg'u berishadi [5]. Biroq, ular raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini chuqur ko'rib chiqmagan. Bizning maqola esa yashil infratuzilmani raqamlashtirishning texnologik vositalari va ularning iqtisodiy ta'sirini empirik asosda ko'rsatadi, bu esa mavjud mahalliy yondashuvdan tub farqdir.

Xitoy olimlari – Zhang va Li (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "Smart Green Construction" konsepsiyasi asosida qurilish obyektlarida energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va resurs aylanishiga doir raqamli platformalar joriy etilishi ko'rsatilgan [6]. Ular ko'proq urbanizatsiyalashgan yirik loyihalarga e'tibor qaratadi. Biz esa ushbu konsepsiyani kichik va o'rta qurilish korxonalarida, shuningdek O'zbekiston sharoitida mavjud infratuzilma va normativ hujjatlarga moslab tahlil qilamiz. Bu maqolaning amaliy ahamiyatini va milliy moslashuvchanlik darajasini oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu mavzuga doir tahlillar o'tkazish uchun biz quyidagi formulalardan foydalandik:

Net Present Value (NPV) – Loyihadan kelajakda kutilayotgan sof foyda miqdorini bugungi kunga diskontlash orqali hisoblash:

$$NPV = \sum \left(\frac{CF_t}{(1+r)^t} \right) - C_0$$

bu yerda: CF_t – har yillik naqd pul oqimi,

r – diskont stavkasi,

C_0 – boshlang'ich investitsiya.

Bizda oddiylashtirilgan formula sifatida,:

$$NPV = \left(\frac{\text{Foyda}}{r} \right) - \text{Investitsiya} \quad (r = 10\%).$$

Return on Investment (ROI) – Investitsiyaning nisbiy foydaliligini bildiradi:

$$ROI = \left(\frac{\text{Yillik foyda}}{\text{Investitsiya}} \right) \times 100$$

Energy Investment Index (EII) – Raqamlashtirish orqali bir so'm investitsiyaga to'g'ri keladigan yillik energiya tejash:

$$EII = \frac{\text{Energiya tejash} \left(\frac{\text{GWh}}{\text{yilda}} \right)}{\text{Investitsiya (mlrd so'm)}}$$

Jadval-1. Qurilish korxonalarida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish tahlili

Ko'rsatkich nomi	Korxona A	Korxona B	Korxona C
Raqamlashtirish darajasi (%)	40.0	65.0	80.0
Yashil infratuzilma bahosi (0–10)	5.0	7.8	9.0
Energiya tejash (GWh/yil)	12.0	24.0	32.0
Chiqindi kamayishi (%)	15.0	28.0	35.0
Qayta ishlash darajasi (%)	22.0	41.0	55.0
Uglerod izining kamayishi (%)	10.0	25.0	32.0
Sifat nazorati avtomatlashtirilganligi (%)	45.0	68.0	85.0
IoT sensori joriy etilgan sexlar (%)	35.0	65.0	78.0
Energiya auditi chastotasi (marta/yil)	2.0	4.0	5.0

Jadvalda keltirilgan "Raqamlashtirish darajasi (%)" ko'rsatkichi korxonada avtomatlashtirilgan texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari, monitoring qurilmalari va axborot texnologiyalari qamrovini bildiradi. Bu indikator asosiy o'lchovlardan biri sifatida tanlandi, chunki aynan shu ko'rsatkich ekologik boshqaruvni raqamli nazorat



qilish imkonini beradi. Yuqori raqamlashtirish darajasi – bu ko'proq raqamli vositalar va kamroq inson aralashuvi demakdir. Bu esa ekologik monitoringda xatoliklar ehtimolini kamaytiradi. Shu sababli, maqolada raqamlashtirish darajasi – yashil infratuzilmaga o'tishning boshlang'ich nuqtasi sifatida baholanadi.

“Yashil infratuzilma bahosi (0–10)” ko'rsatkichi korxonadagi ekologik siyosat, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash va sertifikatlash darajasini kompleks tarzda baholaydi. Bu baho asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi, chunki u boshqa barcha ko'rsatkichlarning integratsiyalashgan ifodasidir. Tadqiqotda bu baho subyektiv emas, balki obyektiv asoslarda – xalqaro standartlar, audit hisobotlari va mustaqil baholovchi mezonlari asosida shakllantirilgan. Bu infratuzilma bahosi orqali korxonalarning ekologik raqobatbardoshligi aniqlanadi. Shu sababli jadvalda bu indikator alohida o'rin egallaydi.

“Energiya tejash (GWh/yil)” ko'rsatkichi raqamli infratuzilmaning amaliy samarasini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich yordamida qanday texnologiyalar necha foiz energiya sarfini kamaytirgani aniqlanadi. Shu asosda, maqolada raqamli boshqaruvning energiya samaradorligiga bevosita ta'siri baholandi. Energiya tejash nafaqat ekologik, balki iqtisodiy ko'rsatkich sifatida ham qimmatlidir. Bu sababli ushbu indikator tahlilning markaziy elementlaridan biri sifatida tanlangan.

Jadvaldagi “Chiqindi kamayishi (%)”, “Qayta ishlash darajasi (%)” va “Uglerod izining kamayishi (%)” kabi indikatorlar yashil infratuzilmaning bevosita natijaviy ifodasidir. Aynan raqamli nazorat tizimlari, sensorli texnologiyalar va avtomatik qayta ishlovchilar yordamida chiqindilar nazorat qilinadi. Bu ko'rsatkichlar orqali har bir korxona ekologik siyosat samaradorligini ko'rsatadi. Ayniqsa uglerod izi – global isish bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim mezon. Shu sababli ular maqolada alohida izoh va statistik tahlil asosida tanlangan.

“IoT sensorlar bilan jihozlangan sexlar (%)” va “Energiya auditi chastotasi” kabi indikatorlar esa zamonaviy raqamlashtirish yondashuvlarining mavjudligini ko'rsatadi. Bu indikatorlar korxonaning faqat ekologik emas, balki texnik transformatsiyaga qanchalik tayyor ekanligini ham bildiradi. IoT orqali uzluksiz monitoring va energiya auditi yordamida real vaqt tahlillari amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning mavjudligi – infratuzilma barqarorligini mustahkamlaydi. Shu sababli ular ushbu jadvalda bo'lishi zarur va ilmiy asosga ega.

Jadval-2. Formulalarga asoslangan iqtisodiy va ekologik samaradorlik

Ko'rsatkich nomi	Korxona A	Korxona B	Korxona C
Investitsiya (mlrd so'm)	5.0	7.2	9.0
Yillik foyda (mlrd so'm)	1.2	2.3	3.2
NPV (mlrd so'm)	7.0	15.8	23.0
ROI (%)	24.0	31.94	35.56
Energiya tejash (GWh/yil)	12.0	24.0	32.0
EII (GWh/mlrd so'm)	2.4	3.33	3.56
Chiqindining kamayishi (%)	15.0	28.0	35.0
Uglerod izining kamayishi (%)	10.0	25.0	32.0
Yashil baho (0–10)	5.0	7.8	9.0

Jadvaldagi “Investitsiya (mlrd so'm)” va “Yillik foyda (mlrd so'm)” ko'rsatkichlari raqamlashtirishga qilingan xarajatlar va undan olinadigan daromadlarni solishtirish imkonini beradi. Bu iqtisodiy yondashuv orqali qaysi texnologiyalar investitsiyaga arzigulik ekani aniqlanadi. Buning asosiy sababi – ko'pgina qaror qabul qiluvchilar uchun ekologik omillar ikkinchi darajali bo'lib, ular moliyaviy natijalarni birinchi o'ringa qo'yishadi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali ekologik investitsiyaning iqtisodiy oqibatlari ko'rsatiladi. Shuning uchun ular maqola tahlilida birlamchi iqtisodiy asos sifatida tanlangan.

“NPV (Net Present Value)” indikatorining kiritilishi asosiy tahlil vositasi sifatida tanlandi, chunki u kelajakdagi foydaning hozirgi qiymatini aks ettiradi. Bu formulaga asosan korxona qancha daromad olishni kutayotgani va investitsiya o'zini oqlash darajasi aniqlanadi. NPV qiymatining ijobiy bo'lishi korxona uchun yashil texnologiyalarni joriy qilish moliyaviy jihatdan foydali ekanini isbotlaydi. Shuningdek, bu ko'rsatkich O'zbekiston bozorida investorlar uchun xavfsiz model taklif etadi. Shu bois maqola tahlilida bu formula markaziy rol o'ynaydi.

“ROI (Return on Investment)” esa qisqa muddatli moliyaviy samaradorlikni bildiradi. U yillik daromadning investitsiyaga nisbatan foizda ifodasini beradi va strategik rejalarini ishlab chiqishda eng ko'p ishlatiladigan mezonlardan biridir. Bu ko'rsatkich, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun joriy qilinayotgan texnologiyaning qanchalik tez o'zini oqlashini aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli ROI qiymati 20–35% atrofida bo'lishi – yaxshi investitsion muhitni ko'rsatadi. Jadvalda bu ko'rsatkich orqali tezkor tahlil va solishtirish imkoniyati yaratiladi.

“EII (Energy Investment Index)” ko'rsatkichi raqamli texnologiyalar joriy etilgandan so'ng har bir mlrd so'm investitsiyaga to'g'ri keladigan energiya tejash miqdorini ko'rsatadi. Bu indikator ekologik boshqaruv va iqtisodiy



samaradorlikni birlashtirgan holda baholash imkonini beradi. Bunda raqamli infratuzilma qanday energiya natijasi berayotgani aniqlanadi. Ayniqsa, bu indikator davlat siyosatini shakllantirishda yoki grant ajratishda mezon sifatida foydalidir. Shu sababli maqolada u alohida o'rin egallaydi.

Yakuniy ko'rsatkichlar sifatida "Chiqindining kamayishi (%)", "Uglerod izining kamayishi (%)" va "Yashil baho" kiritilgan bo'lib, ular ekologik samaradorlikni to'laqonli yoritadi. Bu indikatorlar moliyaviy foydani emas, balki atrof-muhitga ta'sirni ko'rsatadi. Ularning kiritilishi raqamlashtirishning nafaqat foyda, balki barqarorlik, xalqaro standartlarga muvofiqlik va ekologik javobgarlikni ham ta'minlashini ko'rsatadi. Bu mezonlar orqali maqolada ilmiy va strategik qarorlar muvozanati yaratiladi. Shu sababli ushbu indikatorlar barcha tahlillarning ijtimoiy va ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan zarur qismi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, qurilish korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yashil iqtisodiy infratuzilmani yaratish imkoniyatlari mavjud va realdir. Raqamlashtirish jarayonlari korxonalarning ekologik samaradorligini sezilarli darajada oshirgan, ayniqsa energiya tejash, chiqindi kamaytirish va sifat monitoringi sohalarida. Tahlil qilingan indikatorlar (NPV, ROI, EII) raqamli infratuzilmaning nafaqat ekologik, balki moliyaviy jihatdan ham o'zini oqlashini isbotladi. Bu holat yashil transformatsiyaning iqtisodiy barqaror asosga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bois, bu yo'nalishdagi islohotlar strategik yondashuv bilan tizimli asosda amalga oshirilishi lozim.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, yuqori raqamlashtirish darajasiga ega korxonalar nafaqat energiya samaradorligida, balki umumiy boshqaruv sifatida ham ustunlikka ega. Ayniqsa IoT, ERP va BI tizimlari joriy qilingan korxonalarda operatsion xarajatlar kamayib, ishlab chiqarish jarayoni yanada shaffof va nazorat qilinadigan bo'ldi. Bu esa boshqaruvning raqamli transformatsiyasi yashil iqtisodiy strategiyalarga xizmat qilishi mumkinligini bildiradi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikda texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu dasturlar investitsiya rag'batlantirish va soliq imtiyozlari bilan birga olib borilishi lozim.

Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, korxonalar uchun sarmoya qaytimi (ROI) va sof foyda (NPV) darajasi yuqori bo'lgan hollarda raqamli yashil infratuzilmani keng joriy etish istagi kuchayadi. Bu esa iqtisodiy manfaat orqali ekologik intizomni shakllantirish mumkinligini bildiradi. Shu munosabat bilan, korxonalar darajasida raqamli monitoring, energetik audit va chiqindilarni real vaqtda nazorat qiluvchi tizimlarni joriy qilish majburiyati normativ-huquqiy asoslarda belgilanishi zarur. Bunda kichik va o'rta biznes subyektlariga moliyaviy va texnik yordam mexanizmlari yo'lga qo'yilishi zarur. Xalqaro moliya institutlari bilan qo'shma loyihalar ham bu borada ijobiy natija berishi mumkin.

Yakuniy taklif sifatida, O'zbekistonning "2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi" doirasida qurilish sanoatida yashil iqtisodiyot va raqamlashtirishni uzviy bog'liq yo'nalish sifatida qarash lozim. Strategik hujjatlarda yashil texnologiyalarni joriy etishda texnik reglamentlar, me'yoriy hujjatlar va monitoring tizimlari raqamlashtirish asosida shakllantirilishi kerak. Bu borada ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasidagi klaster yondashuvi joriy etilishi mumkin. Bundan tashqari, davlat tomonidan tasdiqlangan "Yashil raqamli infratuzilma indeksleri" ishlab chiqilishi, baholash va grant ajratish mezonlariga aylanishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu takliflar O'zbekiston iqtisodiyotining ekologik va raqamli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Daly H.E. Ekologicheskaya ekonomika i ustoychivoye razvitie. – M.: Progress, 2005. – 310 s.
2. OECD. Green Infrastructure in the Decade for Delivery: Assessing Institutional Investment. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 114 p.
3. Porter M., van der Linde C. Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship // Journal of Economic Perspectives. – 1995. – Vol. 9, No. 4. – P. 97–118.
4. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 192 p.
5. Zhang Y., Li H. Digital technologies and green building integration: A Chinese case // Journal of Cleaner Production. – 2022. – Vol. 348. – P. 131–140.
6. Rustamov A.M., Xasanov S.M. Yashil iqtisodiyot: nazariy asoslari va O'zbekiston tajribasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №2. – B. 45–52.
7. Karimov A.B. Qurilishda raqamlashtirish texnologiyalari: tendensiyalar va istiqbollar // Iqtisodiyotni raqamlashtirish: muammo va yechimlar. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022. – B. 85–91.
8. Xurramov S.X., Bobojonova Z.Sh. Innovative Foundations of a Unified Economy in the Field of Religious Education // Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2023. – Vol. 2, Issue 3. – P. 44–51.
9. Bobojonova Z.Sh. Digitalization as a Strategic Means of Achieving Sustainable Development in the Construction Sector // Sustainability. – 2022. – Vol. 14(5). – Article ID 5040.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>